



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumanidan yuborilgan tanqidiy murojaat e'lon qilingan edi.

Murojaatda: "Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi Qumtepa bozorining mebel buyumlar tomonidagi yo'li kovid pandemiyasi payti beton to'siqlar bilan yopilgan edi. Beton to'siqlar haligacha olib tashlanmadi. Bu esa avtomobillar va piyodalar harakatiga noqulaylik tug'diryapti. To'siqni olib tashlashlarini so'raymiz" - deya xabar qilingan.

Ushbu murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz. Marg'ilon buyum bozorining orqasida, mebel buyumlari tomonida zovur mavjud bo'lib, zovurning ko'prigi yaroqsiz xolatga kelib qolgan. Ushbu ko'prik avtomobil havfsizligini ta'minlash uchun beton to'siq bilan to'silgan. Ko'prik ta'mirlanganidan so'ng, beton to'siqlarni olib tashlanishini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-02-09 08:41:46